

**UMARALI NORMATOV IJODIY FAOLIYATI, MUNAQQIDLIKKA KIRIB
KELISHI VA MAQOLALARIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR TAHLILI**

Sarvinoz Qo'chqarova (muallif)
Termiz davlat universiteti talabasi
Ilmiy raxbar: Sultonqulova Feruza
Ilmiy darajasi: o'qituvchi

Anotatsiya: Ushbu maqolada tanqidchi, adabiyotshunos, munaqqid olim Umarali Normatovning ijodiy faoliyatiga oid fikr mulohazalar va ilmiy ishlar tahlili, maqolalaridagi dolzarb masalalar haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Munaqqid, ijodiy faoliyat, tarjimayi hol, asarlar, tahlil, tamoyil, nazariya.

Iqtibos: "Adabiyot daryosi qurib-qaqshab yotgandan ko'ra, loyqa bo'lsa ham to'lib oqqani ma'qul, bo'tana oqim ham oxir-oqibat tinadi-da axir"

U. Normatov

Kirish

Umarali Normatov - adabiyotshunos, tanqidchi, pedagog. 1931- yil 3- yanvar kuni Farg'ona viloyatining Rafqon qishlog'ida tug'ilgan. Umarali Normatovning butun balog'at yillari O'zbekiston Milliy universiteti bilan bog'liq (sobiq O'ODU, ToshDU): filologiya fakultetida o'qigan (1952-1957), katta o'qituvchi, dotsent, professor, o'zbek filologiyasi fakultetida kafedra mudiri kabi lavozimlarda ishlagan. 1974-yildan 2000-yilgacha O'zbekiston Milliy universitetida o'zbek filologiyasi kafedrasini mudiri bo'lgan. Bu yillar davomida kafedrada O. Sharofiddinov, A. Aliyev, A. Rasulov, N. Xudoyberganov, S. Sodikov, B. Karimov, A. Ulug'ov, R. Qo'chqorov, D. Quronov, U. Hamdam kabi o'zbek adabiyotidagi taniqli shaxslar bilan ishlagan. Ular tufayli va ularning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi bois, u nafaqat vatanimizda, balki xorijda ham shuhrat qozondi. Umarali Normatov 1957-yil ommaviy axborot vositalarida chop etila boshladi va bu vaqt ichida u 5000 dan ziyod maqola, 50 ga yaqin adabiy asar, 20 ta kitob, metodik qo'llanmalar va boshqalarni nashrdan chiqargan. U. Normatov faoliyatining mohiyati - tanqidchi-olim vijdonan, samarali tahlil qilgan, sharhlagan, natijada o'zbek adabiyoti yangi tarixining adabiy jarayoniga ta'sir ko'rsatgan. U. Normatovning asosiy kitoblari "Nasrimiz ufqlari" (1974), "Yetuklik" (1982), "Qalb inqilobi" (1986), "Qodiriy bog'i" (1996), O'zbekiston davlat mukofoti laureati (1989). Sovet hukumati hukmronligi davrida u o'z zamondoshlari ijodini o'rganishni boshlagan, ulardan ko'plari hayotdan ko'z yumgan. Uning tadqiqiy ishlarining natijasi "Umidbaxsh tamoyillar", "Tafakkur yog'dusi", "Qahhorni anglash

mashaqqati”, “Ko‘ngillarga ko‘chgan she‘riyat”, “Ustoz ibрати”, “Ijod sehri” asarlari asosiga tushgan. Uning asarlari rus, tojik va turk tillarida nashrdan chiqqan. 1962 yil U. Normatov filologiya fanlari nomzodligi uchun dissertatsiya yoqlagan, 1978 yil doktorlik uchun dissertatsiya himoya qilgan. O‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan katta hissasi uchun O‘zRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi unvoniga musharraf bo‘ladi (1981), Hamza nomidagi Davlat mukofoti laureati (1989), O‘zR ta‘lim a‘lochisi (1992), “ToshDUning mohir pedagogi” (1998). “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Tafakkur” jurnallarida o‘zining adabiy-tanqidiy maqolalarini chop etganligi uchun mukofotlar bilan taqdirlangan. 2006-yil 3-yanvar kuni 75 yoshga to‘ladi. Ushbu yubiley sanada O‘zbekiston Milliy universitetining o‘zbek filologiyasi kafedrasida uning barcha asarlari kafedra kutubxonasiga jamlangan, shuningdek, barcha asarlarining nomi sana tasnifi bilan yozilgan va ro‘yxat tuzilgan.

Asosiy qism

Ilmiy faoliyatida realizm masalalari, 20-asr o‘zbek adabiyoti, adabiy jarayon hamda adabiy tanqidchiligining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, Qodiriy, Sh. Xolmirzayev, P. Qodirov, O‘. Hoshimov va boshqa ijodkorlarning asarlari bilan bog‘liq masalalar muhim o‘rin egallaydi. Umarali Normatov umumta‘lim maktablarining 5- 9-11-sinflari uchun «O‘zbek adabiyoti» darslik va majmualari, oliy o‘quv yurtlari uchun «XX-asr o‘zbek adabiyoti tarixi» (1999) darsligi mualliflaridan biri. Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989) Umarali Normatovni Rapqonda doimo yuksak hurmat bilan tilga olishar, televizordagi har bir chiqishi bir haftalar choyxonalaridagi gurungni asosiy mavzusi bo‘lardi. Yoshi ulug‘lar Ozod Sharafiddinovni Rapqonga Beshariq vokzalidan yuk mashinasida kelganliklarini faxr bilan gapirishadi. Ozod Sharafiddinov Rapqon qishlog‘i markazida joylashgan paxta punktidan Umarali Normatov hovlisini so‘raydi. Qorovul chol Umarali Normatovni akasi Haydarali Normatov paxta punkti direktori ekanligini, hali zamon kelib qolishini aytadi. Lekin Ozod Sharafiddinov qishloq ko‘chalari bo‘ylab Umarali akani uyini izlab ketadi. Domla hovlisini topganida Umarali Normatov boshqa ko‘chadan Kirov (hozirgi Beshariq) tumani markaziga Komsomol komitetiga ishga ketib bo‘lgan ekan. Ozod Sharafiddinov – Umarali akani otasi mulla Normat buva, akasi Haydarali aka bilan tanishadi. Birgina suhbat Ozod Sharafiddinovni bir umr Rapqonga bog‘lab qo‘yadi. Ozod Sharafiddinov Kirov tumani Komsomol komiteti birinchi kotibi oldiga kirib Umarali Normatovni Toshkentga olib ketishini aytib ishidan ruxsat oladi. Shu kuni Ozod Sharafiddinov va Umarali Normatovlar Toshkentga poyezdda qaytib ketishadi. Ozod Sharafiddinov ilmiy yigitlarni izlab uzoq, tog‘ etagida joylashgan Rapqon qishlog‘iga borishdan erinmaydi va adabiyotshunoslikda yangi bir olim Umarali Normatovni kashf qiladi. Ilmiy mavzu berib nomzodlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilgan. Bugun o‘zbek tanqidchiligini, adabiyotshunosligini Umarali Normatovsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, muallim, olim, ijodkor Umarali

Normatov xarakteridagi muloyimlik, bilimdonlik, sermulohazalikning ildizi otanasining savodxonligiga bog'liq, menimcha. Normat qori buva nafaqat Rapqonda balki Farg'ona muzofotidagi Qur'onni yod biladigan savodli, insofli, adolatli insonligi bilan ham keng xalq ommasi hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. Bunday ziyoli oilada tug'ilgan bolani o'qimishli, savodli bo'lmasligi mumkin emas edi. Umarali Normatov – tanqidchi. “Tanqidchi – alohida iqtidor sohibi. Tanqidchi – ijodkor. Yozuvchi hayot orqali kitobga boradi. Tanqidchi kitob orqali hayotga kiradi. U kitoblarni ochadi. Doim shu ma'noda kashfiyotga moyil. Muallimga eruditsiya suv va havodek zarur. Lekin tanqidchini eruditsiyasiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Eruditsiya etilgandagina tanqidchi etiladi” – degan edi O'zbekiston san'at arbobi, adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov. Umarali Normatov – ustozlari G'ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Subutoy Dolimov, Laziz Qayumov, Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shchanov, Ahmad Aliyev singari olim, muallim, ma'naviyatchi, ma'rifatchi, adabiyotshunos – tanqidchi bo'lishni orzuladi. Va bu orzusiga yetishdi. Mamlakatimizning bu ulug' olimlari bilan bir qatorda turib faoliyat ko'rsatdi, ular bilan adabiyot muammolari haqida bahslar olib bordi. O'zbekiston xalq shoiri, Guliston davlat universiteti professori To'ra Sulaymon: "Adabiyotshunoslar yozuvchilar va shoirlarni taqsimlab olishgan, “bor tavog'im kel tavog'im deganday” – degan edi. Umarali Normatov bunday tanqidchilar sirasiga kirmaydi. U yuragini junbushga keltirgan har qanday ijodkor asariga keskin munosabatini bildiradi olish hususiyatiga ega olimdir. Olimning har bir chiqishi xoh u gazeta-jurnalda, xoh televideniya, radiodagi bahsda bo'lsin faqat rost gapni, yuragi buyurganini, yoqish-yoqmasligidan qat'iy nazar his-hayajon bilan ayta olishi bilan olimlar, ijodkorlar o'rtasida katta hurmat topgan. Umarali Normatov asarlarini ko'p o'qiganmiz, konspektlashtirganmiz, tengqur ijodkorlarni o'qishiga tavsiya qilganmiz, referat yozganmiz. Chunki, yangi adabiyotshunoslar, tanqidchilar yetishib chiqishida Umarali Normatov asarlari qo'llanma, darslik vazifasini bajaradi. Olim Abdulla Qahhorni nihoyatda yaxshi ko'radi. So'z sehgari Abdulla Qahhor ijodiga bag'ishlab yuzlab maqolalar yozgan. Bundan tashqari Said Ahmad, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Mirmuhsin, Hamid G'ulom, Nazir Safarov, Rahmat Fayziy, Erkin Vohidov, Pirmuhammad Qodirov, Xudoyberdi To'xtaboev, O'tkir Hoshimov, Iqbol Mirzo, Isajon Sulton, Tog'ay Murod kabi ko'plab ijodkorlar asarlari haqidagi bahslarda faol. Olim adabiy jarayon, yozuvchilarning o'ziga xos hususiyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida to'lqinlanib yozadi va gapiradi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov mehnatni ulug'lovchi tanqidchiligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Chet ellardagi ijodkorlarda bir hususiyat ko'zga tashlanadi. Ya'ni kichik bir asar yozilsa ham u yozuvchini ko'klarga ko'tarib maqtash orqali yuksaltirish odati bor. Umarali Normatovda barcha ijodkorlar mehnatini ulug'lash, hurmat qilish, e'zozlash orqali rag'batlantirish hususiyati juda kuchli. Umarali Normatov nazm va nasrni birdek yaxshi tushunadigan va tahlil qila oladigan tanqidchilar sirasiga kiradi. Eng asosiysi

olim uzoq yillar hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti filologiya fakultetida faoliyat ko'rsatdi. Minglab yoshlarga adabiyot, tanqidchilik sir-asrorlarini o'rgatdi. Adabiyot o'qituvchilarini tayyorlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Olim faqat ma'ruza o'qish, dars o'tish bilangina emas balki maktab o'quvchilari uchun 5-9-11-sinflar uchun yaratgan darsliklari oliy o'quv yurti talabalari uchun "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" darsligini yaratilishiga katta hissa qo'shgan allomadir. Ustoz adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov Umarali Normatovga shunday degan ekanlar: "Ko'rib turibman, o'zingni ancha oldirib qo'yibsan. Birgina mushtga shunchalikmi? - dedilar kulib va qo'li bilan boshiga ishora qilib so'zida davom etdilar, - Bu boshga bunaqa mushtlardan son mingtasi tushgan, o'lib qolgan yo'q, mana tirik yuribman. Navoiy aytmoqchi, "Emas oson bu maydon ichra turmoq"... Adabiyot ishini chidaganga chiqargan!" Bu o'lmas, olg'a chorlatuvchi fikrlar Umarali Normatovga hurmat, mehr, sadoqat, ruhlantirish, yuksaltirish, maslahat vazifasini bajargan bo'lsa kerak. Adabiyotshunos olim, tanqidchi bo'lib yetishishida bunday samimiy, mehrlilik fikrlarni, qo'llab-quvvatlashni ahamiyati katta bo'lganligi shubhasiz. Shuning uchun ham Umarali Normatov ustozlaridan olgan o'g'itlari evaziga o'ziga o'xshagan samimiy, rost so'zlarni doimo ayta oladigan Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karim, Ulug'bek Hamdam, Dilmurod Qur'onov kabi yuzlab tanqidchilar, o'n minglab muallimlar yetishib chiqishiga katta hissa qo'shdi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholandi. U "O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi" unvoni, Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi bo'ldi. Filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatovning hozirgacha ellikka yaqin adabiy-ilmiiy, tanqidiy kitoblar, yigirma beshta darslik, o'quv qo'llanmalari, yetti yuzdan ortiq adabiy tanqidiy maqolalari mamlakatimizdagi va xorijdagi nufuzli jurnallarda e'lon qilingan. Olimning, ayniqsa, "Go'zallik bilan uchrashuv", "Umidbaxsh tamoyillar", "Yetuklik", "Qalb inqilobi", "Qodiriy bog'i", "Qahorni anglash mashaqqati", "Ijod sehri" kabi ellikka yaqin kitoblari yosh adabiyotshunoslar, tanqidchilar, muallimlar uchun darslik, o'quv-qo'llanmasi vazifasini bajarib kelmoqda. Munaqqidning matbuotda e'lon qilingan yuzlab adabiy-tanqidiy maqolalarida istiqbol davridagi adabiy jarayonlar sinchkov olim nuqtayi nazari bilan yoritib berildi. Umarali Normatov 1981-yilda "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan, 1989-yilda "O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati" bo'lgan, 2011-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Umarali Normatovning ilmiy, adabiy-tanqidiy tadqiqotlari yangi o'zbek adabiyoti tarixi, taraqqiyoti masalalariga, uning o'ziga xos an'analari va novatorlik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ilmiy faoliyatida realizm masalalari, XX asr o'zbek adabiyoti, adabiy jarayon hamda adabiy tanqidchiligining o'ziga xos

xususiyatlari, shuningdek, Qodiriy, Sh.Xolmirzayev, P.Qodirov, O'tkir Hoshimov va boshqa ijodkorlarning asarlari bilan bog'liq masalalar muhim o'rin egallaydi. Adib ijodida ana shunday o'ziga xosliklarni ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sodiq S. Umarali Normatov -T.: 1990
- 2.Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa -T.: "Fan", 1978
- 3.Normatov U. Janr imkoniyatlari. T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti",1970.
- 4.Normatov U. Yetuklik. T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti",1982.
- 5.Normatov U. Qodiriy bog'i. T.: "Yozuvchi", 1996.
- 6.Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T.: " Ma'naviyat", 2000.